

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYANING O'RNI****РОЛЬ ИНТЕГРАЦИИ В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА****THE ROLE OF INTEGRATION IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION
AND UPBRINGING OF PRESCHOOL CHILDREN**

Bobomurodova Latofat Elmurodovna

Innovatsion texnologiyalar universiteti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Uzlifat Halimjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda integratsiyaning ahamiyati yoritilgan.

Integratsiya-bu ta'lim jarayonida turli fanlar, faoliyat turlari va tarbiya yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada integratsiyaning mazmuni, turlari va ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinib, uning bolaning shaxsiy, aqliy, estetik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

Abstract

This article highlights the importance of integration in the development of preschool children's education and upbringing.

Integration is considered as an approach that ensures the interconnection of various subjects, types of activities, and educational directions within the learning process. The article analyzes the content, types and role of integration in the educational process and substantiates its positive impact on the child's personal, intellectual, aesthetic, and social development.

Аннотация

В данной статье раскрывается значение интеграции в развитии образования и воспитания детей дошкольного возраста.

Интеграция рассматривается как подход обеспечивающий взаимосвязь различных предметов, видов деятельности и направлений воспитания в образовательном процессе. В статье анализируются содержание, виды и роль интеграции в образовательном процессе, а также обосновывается е

положительное влияние на личностное, интеллектуальное, эстетическое и социальное развитие ребёнка.

Kalit soʻzlar: Maktabgacha taʼlim, integratsiya, taʼlim-tarbiya jarayoni, bolalar rivojlanishi pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, tarbiyachi mahorati.

Ключевые слова: Дошкольное образование, интеграция, процесс обучения и воспитания, развитие детей, педагогический подход, интерактивные методы, профессиональное мастерство воспитателя

Keywords: Preschool education, integration, the teaching and upbringing process, child development, pedagogical approach, interactive methods, educator's mastery

KIRISH: Bugungi kunda taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi -bolalarning har tomonlama rivojlanishini taʼminlash, ularning tafakkurini, qiziqishini va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishdir. Shu jarayonda integratsiya tushunchasi muhim oʻrin tutadi. Integratsiya-bu taʼlim-tarbiya jarayonida turli fanlar, yoʻnalishlar va faoliyat turlarining oʻzaro uygʻunlashuvi orqali bolada yaxlit dunyoqarashni shakllantirish demakdir.

Maktabgacha taʼlimda integratsiya-bu bolalarning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini bir-biriga bogʻlangan holda amalga oshirishdir. U taʼlim-tarbiyaning turli yoʻnalishlarini uygʻunlashtirib, bolaning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “Maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kopnsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” qarorida maktabgacha taʼlimni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi belgilangan. Qarorda bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi, shuningdek maktabga tayyorgarlik jarayonlarini integratsiyalash muhimligi taʼkidlangan. Shu bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda PF-152-sonli “Maktabgacha taʼlim sifati va samaradorligini yanada oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisi”da farmoni maktabgacha taʼlim jarayonini modernizatsiya qilish, bolalarning rivojlanishini individual monitoring qilish va maktabga tayyorgarligini yanada yaxshilashga qaratilgan strategik hujjat sifatida qabul qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, soʻnggi yillarda maktabgacha taʼlim tizimida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Tadqiqotchilar taʼkidlaydilar, bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish jarayoni anʼanaviy oʻqitish usullaridan farqli ravishda yangicha, interfaol va tajribaga asoslangan metodlarni talab etadi.

Saidahmedov N. “Pedagogik texnologiyalar asoslari” mazkur asar pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari, uning tamoyillari, shakllari va qoʻllash

mexanizmlarini batafsil yoritadi. Muallif dars jarayonini samarali tashkil etishda texnologik yondashuvning afzalliklarini ko'rsatadi.[1]

Xolmatova M. "Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash" bu manbada maktabgacha ta'limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalar – AKT, o'yin texnologiyalari, rivojlantiruvchi metodlar va STEAM elementlari haqida amaliy tavsiyalar berilgan. Integratsion yondashuvni bolalar faoliyatiga tatbiq qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va amaliy mexanizmlari yoritiladi.[2]

Abdullayeva M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda integratsion yondashuv" ushbu asarda bolalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishning integratsion modeli, fanlararo bog'liqlikdan foydalanish strategiyalari, mashg'ulotlarni loyihalash yondashuvlari keltiriladi. Integratsiyaning bolalar tafakkuri, tasavvuri va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalariga ta'sirini ilmiy asosda ochib beradi.[3]

Nuriddinova G.S. "Maktabgacha ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi" muallif maktabgacha ta'limda STEAM metodikasining qo'llanishi, fanlararo integratsiyaning afzalliklari va natijalari haqida ilmiy maqola shaklida ma'lumot beradi. Unda integratsiyaning zamonaviy talablarga mos bo'lgan modullari keltirilgan. Maktabgacha ta'limda STEAMning roli, integratsiya samarasini oshiruvchi metodlar haqida chuqur tahlil beriladi.[4]

L.Bobomurodovanning "Texnik ijodkorlik va dizayn" o'quv qo'llanmasida zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, kompyuterli o'qitish, muammoli o'qitish, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar, ijodiy namunalar xususida mulohazalar yuritilgan.[5]

Sh.T. Xo'jayev. "Uzluksiz ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari" mazkur kitob uzluksiz ta'lim tizimidagi integratsiya bosqichlarini maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan uzviylikni yoritadi. Integratsion yondashuvning tizimli, ilmiy asoslangan modellarini taklif qiladi. Maktabgacha ta'lim integratsiyasi umumiy ta'lim tizimi bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozimligi haqida konseptual qarashlar beradi.[6]

ASOSIY QISM. Integratsiyalashgan yondashuvning dolzarbligi shundan iboratki, u bolalarning ta'lim-tarbiyasini tabiiy jarayon sifatida, hayotiy voqelik bilan bog'liq holda tashkil etishga imkon beradi. Bunda bolalar atrofdagi olamni alohida bo'limlarga bo'lib emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qiladilar.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, integratsion yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot madaniyatini va dunyoni yaxlit idrok etish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni bo'lak-bo'lak qilib emas, balki yaxlit tarzda idrok etadilar. Shu sababli ta'lim

jarayonida integrativ yondashuv ularda atrof muhitni tushunish, bog'lanishlarni anglash va o'z tajribalariga tayangan holda o'rganish imkonini beradi. Integratsiyalashgan ta'limda o'yin, nutq, matematika, san'at, tabiat, musiqiy tarbiya kabi sohalar o'zaro uyg'unlashtiriladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bolaning qiziqishlarini qo'lab-quvvatlaydi va uning ijodiy fikrini rivojlantiradi.

O'zbekistonning 2021-2023 yillardagi maktabgacha ta'lim dasturlari integrativ yondashuvni asosiy tamoyil sifatida belgilagan. O'zbekiston olimlari integratsiya orqali bolaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, qiziqishlarga asoslangan o'qitish, o'yin orqali o'rgatish kabi yondashuvlarni asoslab borgan.

Maqolada keltirilgan nazariy va amaliy jihatlar shuni ko'rsatadiki, turli fanlar, faoliyat turlari va tarbiyaviy yo'nalishlarining uyg'unlashuvi bolalarda muloqot, fikrlash, kuzatish va ijodiy yondashuv va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Menimcha maktabgacha ta'limda integratsiyalashgan ta'limni amaliyotga keng tatbiq etish orqali bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash mumkin. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv bolalarning dunyoni yaxlit idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va o'z tajribasiga asoslanib o'rganishga o'rgatadi. Shu bois menimcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiya tamoyillarini yanada tizimli qilish kerak.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning, ta'lim-tarbiyasida integratsiyalashgan yondashuvning qo'llanishi ta'lim jarayonining sifatini oshiruvchi eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Integratsiya bolalarning bilimlarini bo'laklarga ajratadigan holda emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Bu esa ularning kognitiv, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, ijodiy va jismoniy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar integratsiya bolaning tabiiy o'rganish jarayoniga eng mos yondashuv ekanligini tasdiqlaydi. O'yin, san'at, tabiatshinoslik, nutq o'stirish, matematika kabi faoliyatlarning uyg'unlashuvi ta'lim mazmunini yanada mazmunli, qiziqarli va hayotiy qiladi. Bu holat bolalarda mustaqil fikrlash, muloqot, kuzatuvchanlik ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida integratsiya asosida ishlochi rivojlantiruvchi markazlarning joriy etilishi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zamonaviy sharoit yaratmoqda. Integrativ ta'limning amaliyotga keng tatbiq etilishi maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalar qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - Toshkent : "Fan va texnologiya", 2019.

2. Xolmatova M. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash.- Toshkent: "Tafakkur",2020.
3. Abdullayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashini rivojlantishda integratsion yondashuv. Toshkent: "O'zPFITI" 2021.
4. Nuriddinova G.S. Maktabgacha ta'lim jarayonida fanlar aro integratsiya va STEAM yondashuvi.// "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali,2022.
5. Bobomurodova L. "Texnik ijodkorlik va dizayn" fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. SamDU-2022. ISBN 978-9943-8851-6-5. Samarqand, 67 b
6. Sh.T.Xo'jayev.Uzluksiz ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari.-Toshkent: "O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti",2018.